

SHAVKAT RAHMON IJODIDA HARAKAT BILDIRUVCHI SO'ZLAR SHARHI

Yusupov Qudrat

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, fe'l so'z turkumi, metafora, sifatdosh, ko'p ma'no, so'roq gap, istiora.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Shavkat Rahmon ijodida ish-harakatni bildiruvchi so'zlarning metafora yaratishdagi o'rni tahlil qilinib, keltirilgan misollar asosida shoirning til vositalaridan mohirona foydalanish yo'llari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, shoir ijodida harakatni bildiruvchi so'zlarning metafora yasovchi imkoniyatlari asoslab berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

KIRISH

Nutqiy munosabatlarda o'zaro fikr almashish, suhbatdoshga voqealiga hodisa haqida ma'lumot berishda metaforalarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, badiiy matnlarda, she'riyatda fikr ifodalashning eng ta'sirchan va obrazli yo'lidir. Metafora nutqning ta'sirchanligi va buniyodkorligi vazifasiga muvofiq ravishda antik dunyoda ritorikada vujudga kelib, insoniyat intellektual olamining barcha sohalarini ham zabit etgan.

Metafora (gr. *metaphora* – ko'chirish), avvalo, nutq mexanizmi, biror leksema denotating tashqi, zohiriyligi o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatalishidir [Sayfullaeva 2006: 391].

ADABIYOTLAR SHARHI

Metaforani so'zlovchining lisoniy-mental doirasi bilan chegaralash mushkul: insonning metaforalardan foydalanish bilan bog'liq faoliyati uniboshqa mavjudotlardan farqlantirib turuvchi jihatdir [Laguta 2003: 7]. Binobarin, O. Lagutaga ko'ra, -metafora atamasi o'zining poetik-ritorik iste'mol doirasidan allaqachon chiqib ketgan, landshaft unsurlari, dizayn predmetlari, tarixiy va maishiy voqealar, badiiy uslub va vositalar, axborot texnologiyalaridagi ba'zi bir o'zgarishlar bugungi kunda metaforaviy talqinda qabul qilinmoqda [Laguta 2003: 7].

Ko'rindaniki, metaforalar borasidagi qarashlar nihoyatda munozarali. Bu esa mazkur ilmiy mavzuning jiddiy tarzda ishlanmaganligini, yetarli darajada yangiligini, originalligini, shu bilan birga, o'ta dolzarbligini qayta bor isbotlaydi. Shavkat Rahmon she'riyatida metaforalarning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, shoir o'z she'rlarida belgi yoki predmetni ifodalovchi so'zlar bilan bir qatorda harakatni ifodalovchi so'zlarishtirokida ham metaforalar yarata olgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

She'rnинг obrazli, ta'sirli chiqishi uchun shoir tabiatning barcha hodisalariga murojaat qilib ko'rgan. Yuqorida bandda hayvonga xos xususiyatni koinotga ko'chirgan bo'lsa, quyidagi misrada qushlarga xos asosiy xususiyatni tabiat hodisalaridan bo'lgan bulutga nisbatan qo'llaydi:

//*Oq bulutlar yerga qo'ndimi,*

mo 'jizalar bo 'ldimi sodir?

Oh, naqadar ajoyib tundaoq

mash'ala ekilgan vodiy.//

-Qo‘nmoql fe’li aslida qushlarning asosiy xususiyatini anglatadi. Tabiatda har bir jonzotning o‘ziga xos xususiyati bo‘ladi. Masalan, insonlar, ba’zan hayvonlar, hatto qushlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin bo‘lgan -axtarmoql fe’li bahorga nisbatan qo‘llanilganligi she’rga o‘zgacha ruh bag‘ishlamoqda:

//Endi safsar kechalarda oq mash’alalar tutib, ulug‘vorkengliklarda kezar chiroyli kunduzlarni axtarib bahor. //

Quyidagi misralarda istioraga o‘xshash holat ko‘zga tashlanmoqda, ya’ni ajratilgan so‘zlar bu o‘ringa aloqador bo‘lmasa-da vaqtinchalik omonatga olib turilgan, chunki shoshish, quvonish insonga xos bo‘lib, vaqtincha shamollarga nisbatan qo‘llanilib turibdi:

//Qirchillagan shabada keldi,

ko ‘pirgancha shoshib, quvonib,

Bahor, jismi ochilib, yashnab,

bosib ketdi atir tumani.//

Quyidagi bandda birgina -o‘rgatmoql fe’li qo‘llanilgan bo‘lib, she’r muallifi tabiat hodisalarining muallim singari insonga qanday yashashni o‘rgatishi ifodalanmoqda. Daraxtmisolida bir inson taqdirdida sodir bo‘ladigan turli sinovlarning bo‘lib turishi va sabr qilgan kishi ko‘kramga ham yetishiga ishoralar sezilib turibdi. Shoир o‘rgatmoq fe’lini daraxtga nisbatan qo‘llab hayot falsafasini o‘quvchiga anglatmoqda:

//Go ‘yo quyosh parchalangandy...

G‘arq qiladi olamni farah.

Har bahorda menga erinmay

yashamoqni o‘rgatar daraxt.//

Misralarda ko‘pincha -uyg‘onmoql fe’li mavhum tushunchalarga nisbatan qo‘llanib, ba’zan o‘simliklarga nisbatanham ishlatilishi mumkin, ammo, quyidagi misralarda -uyg‘onmoql fe’li shamol so‘zi bilan birga ishlatilgan holda yoz tarovati tugab, tabiatda oltin kuz boshlanayotgani, saraton kunlar hukmron bo‘lgan paytlarda sovuq shabadalar xuddi inson kabi bir muddat uxbab tin olayotgani tasvirlanmoqda:

//Tog‘larga termulib suradi xayol...

Oloy qirlaridan

Ketar saraton,

Sovuq shabadalar uyg‘ondi tag‘in.

Qushlar qiy-chuviga to‘ladir Osmon.//

Quyidagi misralarda tog‘lar shakl jihatidan balki sabrli, chidamli ekanligidan ko‘rinishi inobatga olinganbo‘lishi ham mumkin, tuyalarga o‘xshatilmoqda.

Shoir she’riyatidagi tog‘ – shoirning yuksalib ketgan ruhi, izardrobu quvonchlari. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoirning ilk she’rlaridan to so‘nggisigacha tog‘lar u bilan yashaydi. U misralarning har birida fe’llarni qo‘llashda ko‘chma ma’noga asoslangan:

//*Tog' xo'rsinib yubordi og'ir-*

vodiylarga yugurdi shamol,

yuzlarini yashirdi hilol.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir,

Teran xobdan uyg'ondi yurak,

Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak //

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman, Shavkat Rahmon o‘z kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ifodalashda badiiy tasvir vositalarining deyarli barchasidan foydalanadi. Ammo, shoir metaforalardan ustalik bilan foydalangani tahlil qilingan namunalar orqali ham ma’lum bo‘ldi. Xususan, metaforalarni hosil qilishda ruhiy holatni yorqin tasvirlash uchun fe’l so‘z turkumidan unumli foydalangan degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada ham Sh.Rahmon muayyan yangiliklar yarata olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullaeva R.R., Mengliev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2016.– 391 b.
2. Laguta O. N. Metaforologiya: teoreticheskie aspekty / Novosib. gos. un-t. -Novosibirsk, 2013. Ch. 1.– S.7.
3. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. Saylanma. –Toshkent: 2012.- 258 b.